

## James Joyce Qalamiga Mansub “Uilss Sarguzashtlari” Asaridagi Leksik Xususiyatlar.

Inog‘omjonova Robiya Rustamjon qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi

Rustamov Ilxom Tursunovich

Toshkent Davlat Transport Universiteti Chet tillar kafedrası professori

### ABSTRACT

Ushbu maqola jahon adabiyotining yorqin bir namoyandasi James Joycing hayoti va ijodini hamda yozuvchining mashhur asarlaridan biri “Uilss Sarguzashtlari” asaridagi transformatsiyaga uchragan qismlarni tarjima qiladi hamda leksik transformatsiyaning aynan qaysi turiga kirishini tahlil qiladi. Maqolada keltirilgan misollar esa leksik transformatsiya turini yanada yaxshiroq tshunish imkonini yaratadi.

### ARTICLE INFO

Received: 1<sup>st</sup> April 2024

Accepted: 4<sup>th</sup> May 2024

### KEY WORDS:

leksikologiya, qarshilantirish, antonimik tarjima, desfemizm, uyadosh so‘zlar.

**KIRISH.** James Augustine Aloysius Joyse (1882-yil 2-fevral - 1941-yil 13-yanvar) irlandiyalik yozuvchi va shoir. “Ulysses” (1922) va “Finnegancha ma’raka” (1939) romanlarining muallifidir. Joyce so‘nggi ikki roman bilan roman janrini isloh qildi va 20-asrning atoqli yozuvchisi, modernizmning asoschilaridan biri bo‘lib qoldi. Uning bu asarlari o‘z tuzilishi bilan an’anaviy romanlardan farqlanadi, ular nutq shakllari va hikoya qilish usuli muntazam o‘zgarib turishi, afsonalar va tarixiy voqealarga murojaat qilinishi bilan ajralib turadi. Joyse Dublinda tug‘ilgan bo‘lsa-da, hayotining katta qismini Irlandiyadan tashqarida yashagan.

Uning “Ulysses” romanini Ibrohim G‘afurov, “Musavvirning yoshlikdagi tamoyili” romanini esa Ahmad Otaboy o‘zbek tiliga o‘giran. Joyse Dublinda o‘rtahol oilada tug‘ilgan. Otasining oldindan aytib bo‘lmaydigan moliyaviy ahvoli tufayli, oilaviy sharoitga qaramay, u Jezuit Belvedere kollejida a’lo darajada o‘qidi va 1902-yilda Dublindagi Universitet kollejini tugatdi. [1]

1904-yilda u bo‘ljak rafiqasi Nora Barnasle bilan uchrashdi va ular Yevropaga ko‘chib o‘tishdi. U qisqa vaqt Pula shahrida ishladi va keyin Avstriya - Vengriyaning Trieste shahriga ko‘chib o‘tib, ingliz tili o‘qituvchisi sifatida ishlay boshlaydi. Rimda sakkiz oylik yozishmalar xodimi bo‘lib ishlagandan so‘ng Dublinga uch marta tashrif buyurganini hisobga olmaganda, Joyse 1915-yilgacha u yerda yashadi. Triestda u o‘zining “Kamera musiqasi” she’rlar kitobini va “Dublinliklar” hikoyalar to‘plamini nashr ettirdi. Birinchi jahon urushining ko‘p yillarida Joyse Shveysariyaning Zurich shahrida yashagan va Ulyssda ishlagan. Urushdan keyin u qisqa vaqt ichida Triestga qaytib keladi va 1920-yilda Parijga ko‘chib o‘tadi, bu yer 1940-yilgacha uning asosiy qarorgohiga aylanadi. [2]

“Ulysses”(Uliss) birinchi marta 1922-yilda Parijda nashr etilgan, ammo odobsiz deb hisoblangani uchun uni Angliya va AQShda nashr etish ta’qiqlangan. Nusxalari har ikki davlatga kontrabanda yo‘li bilan olib kelingan va pirat versiyalari 1930-yillarning o‘rtalariga qadar chop etilgan va nihoyat nashr qonuniy bo‘lgan. Joyce o‘zining navbatdagi yirik asari “Finnegans Wakeni” 1923-yilda boshlagan va uni o‘n olti yildan so‘ng 1939-yilda nashr etgan. Bu yillar orasida Joyce vaqtini sayohatda o‘tkazgan. U va Nora 1930-yilda Londonda fuqarolik marosimida turmush qurishdi. Ikkinchi jahon urushi paytida Fransiya Germaniya tomonidan ishg‘ol qilinganida, Joyce 1940-yilda Tsyurixga qaytib keladi. U 59 yoshga to‘lishiga bir oydan kamroq vaqt qolganida vafot etadi. “Uliss” ko‘pincha buyuk adabiyotlar ro‘yxatida yuqori o‘rinlarni egallaydi va uning ishini tahlil qiladigan akademik adabiyotchilar ko‘p va ular bu ishda davom

etishmoqda. „Uliss“ romanida, ayniqsa, shahar ko‘chalari va xiyobonlarida uning mangu siymosi o‘rnatiladi. Joycening “Men o‘zim uchun doimo Dublin haqida yozaman, chunki agar men Dublinning yuragiga kira olsam, dunyoning barcha shaharlarining qalbiga kira olaman, xususan, insoniyat ichiga ham” degandi. [3]

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Mazkur asardagi parchalar, leksik transformatsiya turi jihatidan tahlil qilingan. Tarjimaning leksik muammolarini hal etishda ikki tilli lug‘atlar ma‘lum jihatdan ahamiyati katta hisoblanadi. Biroq odatda lug‘atlarda so‘z ma‘nosining muqobillarigina beriladi. Tarjima lug‘ati qanchalik mukammal bo‘lmasin, unda so‘zlarning barcha ma‘nolari yoki ma‘no nozikliklarini qamrab olishning iloji yo‘q, chunki lug‘at ikki til tizimi unsurlari bilan ish ko‘radi. Tarjima uchun til tizimlari emas, balki nutq, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, nutq mahsuli bo‘lmish matn muhimroqdir. Tarjima jarayonida tarjimon ko‘p ma‘noli so‘zning qaysi ma‘nosi qo‘llanilganligini kontekst asosida o‘zi aniqlamog‘i lozim.[4]

**TAHLIL VA NATIJALAR. Parcha:** O, look what I found in professor Goodwin’s hat! **Tarjima:** Voy, qaranglar-a, men professor Gudvinning shlyapasidan nima topib oldim. **Tahlil:** Leksik transformatsiya. Undov so‘z tarjimada modal so‘z sifatida berilgan. (107-bet).

**Parcha:** Poor old professor Goodwin. Dreadful old case. Still he was a courteous old chap. Old fashioned way he used to bow Molly off the platform. **Tarjima:** Bechora qari professor Gudvin. Munkillagan chol, nima bo‘lsa ham, u har qalay iltifotli qariya edi. U eskicha ta‘zim-tavoze qilib Mollini sahnadan kuzatib qo‘yardi. **Tahlil:** Leksik transformatsiya. Desfimizm qo‘llanishi kuzatilgan, ya‘ni so‘zlarning qo‘pol variantidan foydalanilgan. (107-bet).

**Parcha:** “Don’t complain about the snow on your neighbor’s roof,” said Mr Leopold Bloom to Buck Mulligan, “when your own doorstep is unclean.” **Tarjima:** O‘zingizning ostonangiz tozalanmasdan turib, qo‘shningiz tomida qor yotganidan shikoyat qilmang. **Tahlil:** Leksik transformatsiya. Frazeologizm. Frazeologizm — bu til birliklari bo‘lib, ular ikki yoki undan ortiq so‘zning birlashuvi natijasida hosil bo‘ladi va ma‘lum bir ko‘chma yoki tasviriy ma‘noni ifodalaydi. Frazeologizmlar odatda o‘z tarkibidagi so‘zlarning lug‘aviy ma‘nolaridan farqli ravishda ishlatiladi va ko‘pincha xalq og‘zaki ijodi yoki tarixiy voqealar asosida shakllangan bo‘ladi. Misollar:

- "Ko‘klarga ko‘tarish" — juda maqtash.

- "Qo‘lini suvga tekkizmaslik" — hech qanday ish qilmaslik.

- "Yurak yutmoq" — jasorat ko‘rsatmoq. Bu yerda tarjimon iborani so‘zma-so‘z tarjima qilgan va to‘liq ma‘nosini ta‘riflay olmagan. Tarjimada muqobil variantdagi ibora berib ketilishi kerak edi. Masalan: Avval o‘zinga boq, keyin nog‘ora qoq. (106-bet).[5]

**MUHOKAMA. Parcha:** Mr Leopold Bloom ate with relish the inner organs of beasts and fowls. He liked thick giblet soup, nutty gizzards, a stuffed roast heart, liverslices fried with crusted crumbs, fried hencods’ roes. Most of all he liked grilled mutton kidneys. **Tarjima:** Mister Leopold Blum va qushlarning ichki a‘zolarini juda yaxshi ko‘rib yerd. U ichak-chavoqlar solib qaynatilgan sho‘rva, yong‘oq mazasi keluvchi kindiklar, qiyma qilib qovurilgan yurak, qotgan non bilan pishirilgan jigar, treska balig‘ining yog‘da qovurilgan uvuldiriqlarini rohat qilib tanavvul qilardi. U hammasidan laqqa cho‘g‘ ustida qovurilgan qo‘y buyragidan lazzat olardi. **Tahlil:** Leksik transformatsiya. Uyadosh so‘zlarning ketma ket qo‘llanilishi kuzatilgan. (92-bet).

**Parcha:** What is that? —What, sir? —Again, sir. We didn’t hear. Their eyes grew bigger as the lines were repeated. **Tarjima:** — Qani, toping, bu nima? — Qanday, ser? — Yana bir ayting, ser. Biz eshitmay qoldik. She‘r aytilgani sayin ularning ko‘zlari kata-katta ochilardi. **Tahlil:** Leksik transformatsiya. Tarjimada so‘z orttirilishi kuzatilgan. What is that? Qani toping bu nima? Qani toping orttirilyapti. (46-bet).

**Parcha:** He who can do this has the whole word with him . He who cannot walks a lonely way. **Tarjima:** Buni uddalagan, dunyoni zabt etadi, Uddala olmagan yolg‘izlikka mahkum. **Tahlil:** Leksik transformatsiya. Antonimik tarjima. Qarshilantirish. Qarshilantirish yoki antonim so‘zlar - bu bir-biriga zid yoki qarama-qarshi ma‘nolarni bildiruvchi so‘zlar. Masalan, "katta" va "kichik", "yaxshi" va "yomon" kabi juft so‘zlar qarshilantiruvchi yoki antonim hisoblanadi. Ular tilimizda qarshi tushunchalarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi va turli kontekstlarda so‘z boyligini oshirishda yordam beradi. Qarshilantiruvchi so‘zlar nutqda taqqoslash yoki zid tuyg‘ularni, tushunchalarni aniqroq ifodalash uchun ishlatiladi. (37-bet).[6,7,8]

**XULOSA.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, "Uliss Sarguzashtlari" asaridagi leksik xususiyatlar Joyce ijodining yuksakligini va uning til vositasida yaratgan tasviriy olamini yanada chuqurroq anglashga yordam

beradi. Bu asar, tilning ifoda vositasi sifatida qanday imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatib, adabiyotshunoslar va lingvistlar uchun boy material taqdim etadi. Joysening asarini o'rganish natijasida, tilning cheksiz imkoniyatlari va yozuvchi tomonidan ushbu imkoniyatlarning qanchalik samarali ishlatilishi namoyish etilgan. Ushbu tahlil orqali biz Joyse'ning nafaqat mohir adib, balki uning yozgan asari tarjia sohasida noyob resurs ekanligiga ham guvoh bo'ldik.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Saima Bibi. (2020). The Exploration of James Joyce's Text's Inability of Ever Arriving at A Conclusive or A Unified Point with Especial Reference to Finnegans Wake. Pakistan's Multidisciplinary Journal for Arts & Science, 1(02), 25 -. Retrieved from <https://pmdjas.com/index.php/pmdjas/article/view/12>
2. Bowker G. James Joyce: a biography. – Weidenfeld & Nicolson, 2011.
3. Bowker G. James Joyce: a new biography
4. Roeper, T., & Muffy E. A. Siegel. (1978). A Lexical Transformation for Verbal Compounds. Linguistic Inquiry, 9(2), 199–260. <http://www.jstor.org/stable/4178052>
5. Uzbek T. W. F. E. T. Transformations Used In The Process Of Translating Works From English To Uzbek (In The Example Of Daniel Gerhard Brown's "The Da Vinci Code").
6. Tursunovich R. I., Tursunovna M. N. THE INTELLECTUAL GROWTH INVOLVED IN THE PROCESS OF TRANSLATING LITERATURE //Journal of new century innovations. – 2024. – T. 53. – №. 1. – C. 36-42.
7. Tursunovich R. I., Tursunovna M. N. THE UTILIZATION OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS IN LITERARY WORKS //Journal of new century innovations. – 2024. – T. 53. – №. 1. – C. 43-49.
8. Tursunovich R. I. et al. INVESTIGATING LINGUISTIC CHALLENGES ARISING FROM TRANSLATING PROVERBS FROM ENGLISH INTO ANOTHER LANGUAGE //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2024. – T. 26. – C. 132-135.